



# NAVOIY VILOYATI NUROTA TUMANI HOKIMI F A R M O Y I S H I

210700, Nurota t., Islom Karimov sh. k 48, tel: (79)523-13-42, nurota@nv.uz

2023 - yil 18 - aprel

61-5-74-F/23

Nurota tumani hokimligi

“Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi qonunining 40-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 73-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 5-martdagi “Mansabdor shaxslarning xorijiy mamlakatlarga chiqish tartibini takomillashtirish choralari to‘g‘risida”gi PQ-2142-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 27-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg‘armasi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 321-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 19-noyabrda 2730-raqamda ro‘yxatdan o‘tkazilgan 2015-yil 19-oktabrdagi 92-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Vazirliklar, idoralar, korxonalar va tashkilotlar xodimlari O‘zbekiston Respublikasi tashqarisiga xizmat safariga yuborilganda xizmat safari xarajatlari uchun mablag‘lar berish tartibi to‘g‘risida”gi nizomga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining joriy yil 30-martdagi 02-2-498 XDFU-son topshirig‘i, tuman hokimligi iqtisodiyot va moliya bo‘limi mudirining 2023-yil 18-apreldagi 01-12-238/20-03-38/20-sonli xatini inobatga olib,

1. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (S.Haydarov) tuman mahalliy byudjetining zaxira jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan tuman hokimi o‘rinbosari, Investitsiyalar va tashqi savdo bo‘limi boshlig‘i Azimov Ravshan Hakim o‘g‘lini Xitoy Xalq Respublikasiga xizmat safariga borib kelishini amalga oshirish uchun xizmat safari xarajatlariga 42,0 mln.so‘m mablag‘ ajratilsin.

2. Tuman hokimligi bosh hisobchisi (A.Abdusalimov) ajratilgan mablag‘dan maqsadli va samarali foydalanilishini ta‘minlasin.

3. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi, tuman G‘aznachilik xizmati bo‘limi mahalliy byudjetining zaxira jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan ajratilgan mablag‘larni amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq maqsadli va samarali foydalanilishini nazorat qilsin.

4. Mazkur farmoyish ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Bo‘riyev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Fayziyev